

ERKAKLAR QOMATINING TURLARI HAQIDA MA'LUMOT

Abduraximova Manzura Sodiqovna¹¹ Farg'ona davlat texnika universiteti

"Yengil sanoat muhandisligi" kafedrasi tayanch doktoranti

+99899 990-47-26 manzuraabduraximova5@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:17.06.2025

Revised: 18.06.2025

Accepted:19.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

sagittal, frontal,
gorizontal, sathdan,
erkaklarning gavda
tuzilishi, yetti turga
bo'lingan, ko'krakdor
tur, mushaklari
rivojlangan tur, qorindor
tur, h, k.

Ushbu maqolada odam organizmining barcha qismlarini, a'zolarining tuzilishini, a'zolarining organizmda joylashib turgan o'rnini yoki ularning alohida qismlarini a'zolariga nisbatan o'rganishda sagittal, frontal va gorizontal sathdan (odam tikka turgan holatida) foydalanilishi va V.V.Bunak erkaklarning gavda tuzilishi, ya'ni jussasini yetti turga bo'linganligi va ularning uchtasi ko'krakdor (ko'ksi baland) tur, mushaklari rivojlangan tur va qorindor turlari tahlil natijalari yoritilgan.

KIRISH. Xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi yengil sanoat oldiga, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, iste'molchilarni sifatli, arzon va raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Mahsulot sifat ko'rsatkichlaridan biri — uning o'lchov va shakllarining odam gavdasi, qo'l va oyoqlari o'lchov va shakllariga mos kelishidir. Shuning uchun ham muhandis-konstruktor loyihalanayotgan buyum kattaliklarini tanlayotganda mahsulot egasi bo'lmish ob'ekt, ya'ni odam to'g'risidagi yetarlicha to'la ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Kiyim konstruksiyasini qurish uchun odam

gavdasi tashqi shaklini aniqlovchi asosiy morfologik belgilarni, tana o'lchovlari variatsiya qonunlarini bilish zarur.

Odam gavdasi tashqi tuzilishini belgilovchi asosiy morfologik belgilarning qiymati jinsga, yoshga, davriy o'zgarishlarga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Morfologik belgilarning turli-tumanligi faqat o'lchamlarning qiymatidagina emas, balki gavdaning tuzilishida, uning proporsiyalarida, qad-qomatda ham kuzatiladi. Bu turli - tumanlikning miqdoran baholanishini aniqlash uchun yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'lish lozim[1].

Asosiy qizim. O'tgan asr oxirlaridan boshlab, odam gavdasi o'lchamlarini o'rganish natijalaridan amaliy maqsadlarda, masalan, sud ekspertizalarida, maktab mebellarini loyihalashda foydalanila boshlagan. Hozirgi vaqtda antropometrik tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar klinik va sport tibbiyotida, aholi turli guruhlarining gavda proporsiyalarini, tuzilish qonuniyatlarini, jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, qonning biokimyoviy tarkibini o'rganishda foydalaniladi.

Anatomiyada odam gavdasini shartli ravishda qo'llar simmetrik pastga osilgan, oyoq bosh barmoqlari tashqariga yo'nalgan vertikal holatda o'rganish qabul qilingan[2].

Odam organizmining barcha qismlarini, a'zolarining tuzilishini, shaklini o'rganishda lotin yoki grek so'zlari keng qo'llaniladi. A'zolarining organizmda joylashib turgan o'rnini yoki ularning alohida qismlarini a'zolariga nisbatan o'rganishda ko'pincha uchta: sagittal, frontal va gorizontal sathdan (odam tikka turgan holatida) foydalaniladi.


Sagittal sath – odam tanasining oldindan orqa tomonga qaratib boshidan oxirigacha vertikal (tikka) kesilishi natijasida hosil bo'ladi. Agar muzlatilgan murdaning sagittal sathi qoq o'rta qismidan teng 2 ta o'ng va chap nimtalarga ajratilsa, o'rta (mediana) sathi hosil bo'ladi (1-rasm,6).

Frontal sath (frontes – peshona) – sagittal sathiga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilib yoki aniqrog'i odam peshonasiga parallel holatda vertikal kesilganda vujudga keladi (1-rasm, 4).


Gorizontal (transverzal) sath – fazoga (gorizontal) yoki sagittal bilan frontal sathlariga to'g'ri burchak hosil qilib kesilganda hosil bo'ladi (1-rasm,5).

Odam organizmini o'rganishda va uning alohida qismlarini, a'zolarini tekshirishda ana shu yuqorida ko'rsatilgan uchta sathdan keng foydalaniladi. Tabiiyki, tana orqali sagittal, frontal va gorizontal sathlarni son-sanoqsiz marta o'tkazish mumkin, lekin o'rta yoki markazdan o'tadigan sath faqatgina

bitta bo'ladi. Quyida tana ko'ndalang kesigining sxemasi berilgan (2-rasm). Markaziy sagittal sathga «mediana» deb aytiladi. Markaziy frontal sath gavdani old va orqa tomonlarga bo'ladi. Old tomoniga – ko'krak-qorin hamda orqa tomonga orqa-kurak qismlar ham deyiladi. Organlarning ushbu sathlarga qaratilgan yuzasiga – «lateral» deb aytiladi[3].



1-rasm. Odam gavdasining o'qlar va sathlar sxemasi:
1 – vertikal o'q; 2 – frontal o'q; 3 – sagittal o'q; 4 – frontal sath;
5 – gorizontaal sath; 6 – sagittal sath; 7 – o'rta sath (sagittal sathlardan biri).




2-rasm. Tana ko'ndalang kesigining sxemasi:
1 – o'rta sagittal chiziq; 2 – sagittal chiziq; 3 – frontal chiziq.

Erkaklarda gavda (tana) tuzilishining turlari. Tana tuzilishi turlarining turli sxemalari ishlab chiqilgan. Bulardan biri erkaklar tana shakllari uchun qo'llanilsa, boshqalari – ayollar va uchinchi bolalar tana shakllari uchun qo'llaniladi. Ushbu belgilarning turlicha moslashuvi odam tanasining turlicha tashqi shakllarini hosil qiladi. Shunga asosan erkaklar va ayollar tana tuzilishining turli turlari farqlanadi[4].

V.V.Bunak erkaklarning gavda tuzilishi, ya'ni jussasini yetti turga bo'ladi, shulardan uchta asosiy hisoblanadi: ko'krakdor (ko'ksi baland) tur; mushaklari rivojlangan tur va qorindor tur. Ko'krakdor tur (3-rasm, a) – unchalik semizmas, mushaklari ozgina rivojlangan, ko'krak qafasi yassi, qorni tortilgan, bukchaygan.

Mushaklari rivojlangan - mushakdor tur (3-rasm, b) – teridagi yog' qatlami o'rtacha, mushaklari o'rtacha yoki juda rivojlangan, ko'krak qafasi tsilindrik shaklda, orqasi tekis. Qorindor tur (3-rasm, v) – semiz, mushaklari o'rtacha yoki kam rivojlangan, ko'krak qafasi konussimon, qorni dum-dumaloq bo'lib chiqib turadi, bukchaygan yoki oddiygina[5].



3-rasm. **Erkaklar qomatining turlari.**
 a – ko'krakdor tur; b – mushaklari rivojlangan tur; v – qorindor tur.

Xulosa. Maqolada odam organizmining barcha qismlarini, a'zolarining tuzilishini, shaklini o'rganishda a'zolarining organizmda joylashib turgan o'rnini yoki ularning alohida qismlarini a'zolariga nisbatan o'rganishda ko'pincha uchta: sagittal, frontal va gorizontal sathdan iboratligi, hamda, sagittal sath – odam tanasining oldindan orqa tomonga qaratib boshidan oxirigacha vertikal (tikka) kesilishi, frontal sath – sagittal sathiga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilib yoki aniqrog'i odam peshonasiga parallel holatda vertikal kesilganda vujudga kelishi, gorizontal sath – fazoga yoki sagittal bilan frontal sathlariga to'g'ri burchak hosil qilib kesilganda hosil bo'lishi tahlil natijalari yoritilgan. Tana tuzilishi turlarining turli sxemalari ishlab chiqil-ganligi, bulardan biri erkaklar tana shakllari uchun qo'llanilsa, boshqalari – ayollar va uchinchi bolalar tana shakllari uchun qo'llanilish, bu belgilarning turlicha moslashuvi odam tanasining turlicha tashqi shakllarini hosil qilishi, shunga asosan erkaklar va ayollar tana tuzilishining turli turlari farqlanishi, V.V. Bunak erkaklarning gavda tuzilishi, ya'ni jussasini yetti turga bo'linishi, bulardan uchitasi: ko'krakdor (ko'ksi baland) tur; mushaklari rivojlangan tur va qorindor turlardan iborat ekanligi yoritilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

[1]. Tursunova Zebiniso Nurillayevna “Odam tanasining antropologik xususiyatlari” monografiya – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2024y.

[2]. Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С. Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии. М., 2000.

[3]. R.X. Babayeva Amaliy antropologiya va biomexanika. Toshkent. “Vorish nashriyot”, 2009y.

[4]. Abduraximova Manzura Sodiqovna “NOTIPAVIY QOMATLI AYOLLARGA MOS TUSHUVCHI KIYIM TURINI ANIQLASH” Maqola- 2021yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6785667>

[5]. Abduraximova Manzura Sodiqovna, Ergasheva Rashida Abdurashidovna, Aripdjanova Dilafruz O'ktamovna “AYOLLAR NOTIPOVOY QOMAT TURLARINI O'RGANISH VA ULARNI TAHLILI”. Maqola-2021yil.